

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT QONUNCHILIGIDA SHARTLI HUKM
QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI**

Kamolov Xayrulloxon Juraxon o'g'li
Toshkent viloyati jinoyat ishlari bo'yicha
Chirchiq shahar sudining raisi
Tel: +998914674045

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15241178>

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi shartli hukm qilishning jinoyat qonunchiligida belgilangan tartibi, O'zbekiston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha sudlari tomonidan 2024-yilda ko'rib chiqilgan va jazodan shartli ozod etilgan hamda jazoni yengilrog'i bilan almashtirilgan ishlar statistikasi, sudlar tomonidan jazodan shartli ozod qilishda e'tiborga olinadigan holatlar haqida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: Jinoyat kodeksi, insonparvarlik prinsipi, shartli ozod qilish, ijtimoiy xavflilik, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, jazo.

So'nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar zamirida fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikni oldini olish, jinoyatchilikka qarshi murosasiz kurash olib borishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish, uning samarali tizimini yaratish, davlatning qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash, inson huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari, tinchlik va xavfsizlikni ishonchli himoya qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni alohida e'tirof etish joiz.

O'zbekiston Respublikasida jinoyat ishlari bo'yicha sudlarida ko'rilayotgan ishlarda jinoiy jazoni aybdorning jinoiy harakatni sodir etishgacha bo'lgan harakatlari, uning shaxsi, jamiyatdagi o'rni, jinoyatni sodir etishga undagan omillar, ya'ni jinoyatni yengillashtiruvchi holatlardan hamda ijtimoiy xavflilik darajasidan kelib chiqib, shartli hukmga o'zgartirilmoqda. Bu esa Jinoyat kodeksining asosiy prinsiplaridan bo'lmish insonparvarlik tamoyili keng qo'llanilayotganidan dalolat. Jinoyat kodeksi 7-moddasiga ko'ra, jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko'zlamaydi. Jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan u axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun zarur hamda yetarli bo'ladigan jazo tayinlanishi yoki boshqa huquqiy ta'sir choralari qo'llanilishi kerak. Jazolashdan ko'zlangan maqsadga ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddalarida nazarda tutilgan yengilroq choralarni qo'llash orqali erishib bo'lmaydigan taqdirdagina og'irroq jazo choralari tayinlanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan e'lon qilingan rasmiy statistikaga qaraydigan bo'lsak, 2024-yilda jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan 77995 nafar shaxsga nisbatan 61481 ta jinoyat ishi ko'rib chiqilgan. Shundan 723 nafar shaxs oqlanib, reabilitatsiya qilingan bo'lsa, 7956 nafar shaxs ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar tayinlanishi munosabati bilan sud zalida qamoqdan ozod qilindi, 33151 nafari jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi, 11581 nafariga tayinlangan jazosi yengili bilan almashtirildi va 14991 nafar shaxsga nisbatan dastlabki tergov organlari tomonidan asossiz ravishda qo'yilgan moddalar ayblovdan chiqarib tashlandi yoki qayta malakalandi. 124 nafar shaxsga (yoshlar, ayollar va boshqalar) kafolat xatlari asosida ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar tayinlangan. 33146 nafar shaxs jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilinib, 11581 nafar shaxsning jazosi yengilrog'i bilan almashtirilgan. Yarashuv

institutining samarali qo'llanilishi natijasida 13434 nafar shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod etilgan.

Shaxslar qanday hollarda jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod etilishi yoki jazosi yengilrog'i bilan almashtirilishi mumkin?

Sudlar shaxslarga nisbatan shartli hukm qo'llashda Jinoyat kodeksi 72-moddasiga asoslangan va biz yuqorida keltirganimizdek shaxslarning jinoyatni sodir etishgacha bo'lgan xulqi va ijtimoiy xavflilik darajasini inobatga olib mustaqil tarzda ayblov hukmini e'lon qiladi. Jinoyat kodeksi 72-moddasiga ko'ra, agar sud ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash yoki axloq tuzatish ishlari jazolarini tayinlash vaqtida sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi, aybdorning shaxsi va ishdagi boshqa holatlarni e'tiborga olib, aybdor tayinlangan jazoni o'tamasdan turib ham uning xulqini nazorat qilish orqali tuzatish mumkin, degan qat'iy fikrga kelsa, shartli hukm qo'llashi mumkin. Bunday holda sud, basharti, belgilangan sinov muddati davomida jazoning shartliligini bekor qilish asoslari kelib chiqmasa, tayinlangan jazoni ijro etmaslik to'g'risida qaror chiqaradi.

Sinov muddati bir yildan uch yilgacha belgilanib, hukm chiqarilgan kundan boshlab hisoblanadi. Basharti, shartli hukm qilish to'g'risidagi qaror yuqori sud tomonidan chiqarilgan taqdirda ham, sinov muddatini hisoblash shu kundan boshlanadi.

Shartli hukm qilinganda, basharti, bunga asoslar mavjud bo'lsa, sud mahkumga muayyan vaqt mobaynida yetkazilgan zararni bartaraf qilish, ishga yoki o'qishga kirish, yashash joyi, ish yoki o'qish joyi o'zgarib qolsa, bu haqda shartli hukm qilingan shaxsning xulqi ustidan nazorat olib boruvchi organga xabar berib turish, vaqti-vaqti bilan kelib bu organlarda ro'yxatdan o'tib turish, muayyan joylarda bo'lmaslik, muayyan vaqtda yashash joyida bo'lishi, alkogolizm, giyovandlik, zaharvandlik yoki tanosil kasalligidan davolanish kursini o'tashi kabi majburiyatlarni yuklashi mumkin.

Shartli hukm qilingan shaxslarning xulqi ustidan ichki ishlar organlari, harbiy xizmatchilar xulqi ustidan esa, harbiy qism yoki muassasaning qo'mondonligi nazorat olib boradi.

Hukm qilingan shaxsning xulqi ustidan nazorat olib boruvchi organning taqdimi bilan sud sinov muddati davomida unga yuklatilgan majburiyatlarning hammasini yoki bir qismini olib tashlashi yoki uning zimmasiga yangi majburiyatlar yuklashi ham mumkin.

Agar shartli hukm qilingan shaxs sinov muddati davomida sud unga yuklagan majburiyatlarni bajarmasa yoxud jamoat tartibi yoki mehnat intizomini buzganligi uchun unga ma'muriy yoki intizomiy ta'sir chorasi qo'llanilgan bo'lsa sud uning xulqi ustidan nazorat olib boruvchi organ taqdimnomasiga binoan jazoning shartliligini bekor qilib, hukmda tayinlangan jazoni ijro etish to'g'risida ajrim chiqarishi mumkin.

Shartli hukm o'ta og'ir jinoyati uchun hukm qilinganlarga, shuningdek ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm qilingan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi, o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar, birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bo'lgan shaxslar, ayollar, shuningdek oltmish yoshdan oshgan shaxslar bundan mustasno.

Jinoyat qonunchiligiga asosan jazo shaxsni muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ulardan cheklash dan iborat majburlov chorasi hisoblanib, muayyan muddat davomida shaxsda sudlanganlik holatining mavjud bo'lishiga sabab bo'ladi, shartli hukm qilish esa shaxs tomonidan sinov muddati davomida sud tomonidan unga yuklatilgan majburiyatlar

bajarilsa u axloqan tuzalganligidan dalolat beradi hamda shartli hukm bekor qilinib sudlanganlik tugatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sud plenumining 2006-yil 3-fevraldagi "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi 1-sonli qaroriga asosan "shartli hukm yuridik tabiatiga ko'ra jinoiy jazodan ozod qilishning bir turi hisoblanadi".

Xulosa qilib aytganda shartli hukm alohida bir jazo turi emas balki, sud tomonidan shaxsning qilmishi uchun tayinlangan jazoni muayyan muddat ijro etilmasdan turilishi hamda shaxsning o'z xatti-harakatini qonunga xilof ekanligini anglangani va bundan pushaymonligini bilgani holda unga sodir qilgan jinoiy qilmishini tuzatishi, oqibatlarini bartaraf etishga imkoniyat berish bo'lib, keyinchalik uning asosida jazodan ozod qilishdir.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 22.09.1994-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy sud plenumining 2006-yil 3-fevraldagi "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi 1-sonli qarori.
3. Ochilov X.R., Xaydarov Sh.D., Shamsiddinov Z.Z., "Jinoyat huquqi" (umumiy qism). O'quv qo'llanma -T.: TDYU nashriyoti, 2021. 172 bet.
4. www.lex.uz
5. <https://t.me/oliysuduz/41451>
6. www.sud.uz